

BIN SIN USLUBINING EMOTSIONAL TABIATI

Dilafruz Sodiqova

Mustaqil izlanuvchi, TDSHU
dilafirusmonova791@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr yangi xitoy adabiyotining yirik vakili, "4-may" harakati faoli Bing Xin (Se Binxin) ijodining janriy-uslubiy tabiati va lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi adibaning "muhabbat falsafasi" konsepsiyasini hamda ayol yozuvchilarning xitoy adabiyoti taraqqiyotidagi o'rnini zamonaviy adabiyotshunoslik prizmasida qayta baholash zarurati bilan belgilanadi.

Tahlil markazida klassik xitoy tili (wenyan) va G'arb sintaktik modellarini zamonaviy so'zlashuv nutqi (baihua) bilan sintez qilgan o'ziga xos "Bing Xin uslubi" (Bing Xin ti) tadqiqi yotadi. Maqolada yozuvchining milliy adabiy til me'yorlashuviga qo'shgan hissasi hamda so'zlashuv tilini badiiy yuksaltirish mahorati tizimli yoritiladi.

Tadqiqotda adiba nasridagi voqelik in'ikosi va "emotsiosentrizm" tamoyili o'rganilib, inson, tabiat hamda ichki kechinmalar uyg'unligidan iborat emotsionallikning "sintetik modeli" ochib beriladi. Shuningdek, Bing Xin ijodining bolalar adabiyoti hamda Tayvan madaniy renessansidagi o'rni, zamonaviy sinologiyadagi retsepsiyasi umumlashtiriladi.

Xulosada adiba asarlaridagi lirik ifoda, neologizm va evfemizmlardan foydalanish mahorati XX asr xitoy adabiyotidagi novatorlik tendensiyalarining in'ikosi ekanligi ko'rsatiladi. Mazkur tadqiqot adibaning boy badiiy-lingvistik olamini tizimli tahlil qilish orqali zamonaviy sharqshunoslik fanlari rivojiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Bin Sin, muhabbat falsafasi, Bin Sin uslubi, emotsiosentrizm, yangi xitoy adabiyoti, esseistika, lingvopoetika, sintetik model, bolalar adabiyoti.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются жанрово-стилистическая природа и лингвопоэтические особенности творчества Бин Синь (Се Бинсинь) — выдающейся представительницы новой китайской литературы XX века и активной участницы «Движения 4 мая». Актуальность исследования обусловлена необходимостью переосмысления произведений Бин Синь через призму современного литературоведения, в частности, определения роли женщин-писательниц в развитии китайской литературы.

В центре исследования находится концепция универсальной «философии любви», а также анализ «стиля Бин Синь» (Bing Xin ti), представляющего собой синтез классического китайского языка (вэньянь), западных синтаксических моделей и современной разговорной речи (байхуа). В статье научно обоснован вклад писательницы в нормализацию национального литературного языка через художественное совершенствование разговорной речи.

Автором анализируются художественная концепция, реализм и принцип «эмоциоцентризма» в прозе Бин Синь. В ходе исследования доказывается создание писательницей «синтетической модели» эмоциональности, объединяющей человека, природу и внутренние переживания. Также рассматривается роль её творчества в китайской детской литературе и культурном ренессансе Тайваня, обобщается уровень рецепции её наследия в современной синологии.

В заключении отмечается, что мастерство использования лирической экспрессии, неологизмов и эвфемизмов отражает новаторские тенденции в китайской литературе XX века. Данное исследование способствует развитию современного востоковедения через системный анализ образного мышления писательницы.

Ключевые слова: *Бин Синь, философия любви, стиль Бин Синь, эмоциоцентризм, новая китайская литература, эссеистика, лингвопоэтика, синтетическая модель, детская литература.*

ABSTRACT

This article examines the genre-stylistic nature and linguopoetic features of the works of Bing Xin (Xie Bingxin), a prominent figure in 20th-century modern Chinese literature and an active participant in the "May Fourth Movement." The relevance of the study lies in the necessity to re-evaluate Bing Xin's literary legacy through the prism of modern literary criticism, specifically focusing on the role of female writers in the development of Chinese literature.

The research focuses on the author's universal "Philosophy of Love" and the analysis of the "Bing Xin Style" (Bing Xin ti), which synthesizes Classical Chinese (wenyan), Western syntactic models, and modern vernacular speech (baihua). The article scientifically substantiates the writer's contribution to the normalization of the national literary language by elevating vernacular speech to a sophisticated literary level.

The study explores the artistic conception, realism, and the principle of "emotiocentrism" in Bing Xin's prose. It demonstrates how she created a "synthetic

model" of emotionality that harmonizes humanity, nature, and inner feelings. Furthermore, the article compares her influence on Chinese children's literature and the cultural renaissance in Taiwan, summarizing the level of her reception in modern Sinology.

The study concludes that her mastery of lyrical expression, neologisms, and euphemisms reflects the innovative trends of 20th-century Chinese literature. This research contributes to the advancement of modern Oriental studies by providing a systematic analysis of the writer's figurative thinking and creative world.

Keywords: Bing Xin, philosophy of love, Bing Xin style, emotiocentrism, new Chinese literature, essayistics, linguopoetics, synthetic model, children's literature.

KIRISH

XX asr yangi xitoy adabiyotining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini Bin Sin (Se Binsin) ijodiy merosisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Adiba "4-may harakati" (五四运动 Wūsi Yùndòng) uyg'otgan intellektual salohiyatni adabiy maydonga olib kirib, o'zining universal "muhabbat falsafasi" orqali insonparvarlik g'oyalarining yangi qirralarini kashf etdi. Bin Sin ijodining salmoqli qismini tashkil etuvchi esseistika janri haqiqat, ezgulik va go'zallikning o'zaro dialektik birligini namoyon etuvchi o'ziga xos badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

"Bin Sin uslubi 冰心体 (Bīng Xīn tǐ)" — bu shunchaki yozuv usuli emas, balki an'anaviy xitoy adabiyoti xazinasini bilan G'arbning ilg'or adabiy tendensiyalari o'zaro qovushgan, intellektual va estetik jihatdan mukammal shakllangan betakror lisoniy fenomendir. Yozuvchining "Yosh kitobxonlarga maktublar" ("寄小读者" Jì xiǎo dúzhě) asari¹ nafaqat bolalar adabiyotining tamal toshi, balki epistoliar janrning yuksak badiiy namunasi bo'lib, unda vatanparvarlik, ona mehri va tabiat estetikasi uyg'unlikda aks etadi. Bin Sin tili o'zining musiqiyligi, ritmik tuzilishi va parallelizm hamda antiteza kabi ritorik usullarning o'rinli qo'llanilishi bilan zamonaviy xitoy adabiy tilining me'yorlashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Adibaning ijodiy maktabi nafaqat materik Xitoyda, balki 1950-1960 yillardagi Tayvan adabiy muhitida ham chuqur iz qoldirib, lirik nasrning rivojlanishiga turtki berdi. Bin Sin ijodini akademik darajada o'rganish 1930-yillardayoq boshlangan bo'lib, bugungi kunda uning asarlari estetik va gnoseologik jihatdan qayta talqin qilinmoqda. Mazkur maqolada Bin Sin asarlarining lisoniy qurilishi va badiiy konsepsiyasi zamonaviy adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida tadqiq etiladi.

¹冰心. 寄小读者 [M]. 北京: 人民文学出版社, 2000: 1-5.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda tizimli-tarkibiy va lingvopoetik tahlil metodlari orqali Bin Sin asarlarining lisoniy qurilishi hamda "muhabbat falsafasi" konsepsiyasi yaxlit tizim sifatida o'rganildi. Shuningdek, biografik, qiyosiy-tarixiy va psixologik metodlar tatbiq etilib, adibaning individual uslubi, adabiy novatorligi hamda emotsionallikning sintetik modeli ilmiy asoslandi.

NATIJALAR

Esse (散文 Sǎnwén)² — Bin Sinning eng sevimli adabiy formasi bo'lib, uning barcha asarlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini tashkil etadi. Bin Sin esselari — bu haqiqat, yaxshilik va go'zallik birlashgan badiiy olamdir, uning uslubi esa samimiy va jozibaga boydir. 郁达夫 Yu Dafu: “Esselarning nafisligi, yozuvning latofati va fikrlarning sofligi Bin Sinni Xitoydagi betakror yozuvchiga aylantirdi” (“散文的清丽，文字的典雅，思想的纯洁，在北京（中国）的作家中，冰心是独一无二的»), deb ta'kidlagan hamda yosh kitobxonlar orasida uning ijodiga befarq qoladiganlar juda kamligini qayd etgan³.

“**Bin Sin uslubi**” — bu yozuvchi Bin Sin tomonidan yaratilgan, o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadigan noyob adabiy uslubdir. Bin Sinning o'zi bir safar o'z uslubining asosiy lisoniy xarakteristikasini o'nta iyeroglif bilan umumlashtirgan edi: “**Klassik xitoy tili bilan uyg'unlashgan so'zlashuv tili**” va “**G'arb madaniyati ta'siridagi xitoy tili**”⁴. Bin Sin nasri “tiniq va nafis” tili bilan ajralib turadi. U so'zlashuv tilini mohirona takomillashtirib, uni adabiy til darajasiga ko'tardi. Adiba klassik adabiy iboralar va leksikani zamonaviy tilga singdirdi va integratsiya qildi. Hali “4-may harakati” davridayoq Bin Sin so'zlashuv xitoy tilida (bayxua) ijod qilgan. Garchi uning yozuvi ravon bo'lsa-da, iqtiboslar va sintaktik qurilmalarda goh-gohida klassik xitoy tili (venyan) so'zlari uchrab turadi. Biroq, bu shunchaki klassik va so'zlashuv elementlarining qo'shilishi emas, balki puxta sayqallangan va ishlov berilgan, yagona lisoniy san'atga — lo'nda, tiniq, yangi va latofatli uslubga aylangan parchalardir.

Tadqiqotchilar “Bin Sin uslubi”ning xususiyatlarini **yumshoqlik, nafislik, boy mazmun va ritm** deb ta'riflaydilar. Uning satrlari xoh yorqin, xoh vazmin bo'lsin, kuchli lirik ifodalilikka ega bo'lib, kitobxonlarga poetik va rangtasviriy estetikani tuhfa etadi. Gaplarning turli uzunlikda bo'lishi hamda parallelizm va antitezaning

² "Tarqoq matn" yoki "Erkin nasr". Bu termin keng ma'noda barcha she'riy bo'lmagan badiiy nasrni anglatadi. Bin Sin aynan shu janrning (ayniqsa, lirik esse — *shūqíng sǎnwén*) mohir ustasi hisoblanadi.

³郁达夫. 《中国新文学大系·散文二集》导言 [M]. 上海: 良友图书印刷公司, 1935: 12-17.

⁴冰心, 《我的文体》, 载《冰心全集》第二卷·1994年版。

o‘rinli qo‘llanilishi tilning musiqiyiligini yanada oshiradi. Shuningdek, u sifatlarning takrorlanishidan (duplikatsiya) ustalik bilan foydalanganki, bu uning tilini jonli va chuqur qiladi. So‘z tanlash, gap tuzilishi, ritorika va ritmdagi ushbu puxta takomillashtirishlar uning “klassik xitoy tilini xalqchil qilish”⁵ va “xitoy tilini vesternizatsiya qilish”⁶ konsepsiyalarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Bin Sin yozuv uslubining eng xarakterli namunasi uning **“Yosh kitobxonlarga maktublar”** nomli yozishmalar to‘plamidir⁷. **“Yosh kitobxonlarga maktublar”** — bu Bin Sin 1923-yildan 1926-yilgacha AQShda tahsil olgan davrida yosh o‘quvchilarga yo‘llagan maktublari to‘plamidir. Ushbu maktublarning 21 tasi aynan uning Amerikadagi o‘qishi davomida yozilgan. Asarda xorijdagi taassurotlarni muhrlash, vatanparvarlik va sog‘inch hislarini ifodalash uchun nafis, latofatli, yengil va go‘zal, lo‘nda hamda ravon tildan foydalanilgan. Mavzular tabiat, ona mehri va bolalik beg‘uborligi atrofida aylanib, muallifning “muhabbat falsafasi”ni aks ettiradi. “Yosh kitobxonlarga maktublar” kitobxonlar orasida “Bin Sin uslubi” sifatida shuhrat qozongan va zamonaviy Xitoy bolalar adabiyotining eng ilk namunalaridan biri hisoblanadi. Xitoyga qaytganidan so‘ng, Bin Sin “Yosh kitobxonlarga yana maktublar” va “Yosh kitobxonlarga uchinchi bor maktublar” turkumini yaratib, muhabbat falsafasi mavzusini davom ettirdi.

Uning esselari juda keng ta‘sir kuchiga ega bo‘ldi. 阿英 A In bir safar shunday degan edi: *“Yosh kitobxonlar orasida Lu Sin ta‘sirida bo‘lmaganlar topilishi mumkin, ammo Bin Sin ta‘sirini his qilmaganlar juda kam”*. Shuningdek, u qadimgi yozuv uslubidan olingan xitoy sintaksisi ham ko‘plab yoshlar qalbida aks-sado berganini va ular tomonidan taqlid qilinib, yozuvda o‘ziga xos “Bin Sin uslubi” shakllanishiga xizmat qilganini ta’kidledi. Bin Sin esselari — haqiqat, yaxshilik va go‘zallik birlashgan badiiy olamd⁸.

1950 va 1960-yillarda Bin Sinning kuchli ta‘siri ostida bo‘lgan 林海音 Lin Xayin, 琦君 Si Szyun, 王鼎钧 Van Dinszyun va “Borliq” (Bytie) shoirlari⁹ Tayvan madaniyatini qayta tiklash jarayonida ishtirok etib, o‘z asarlarini ona mehri, ijtimoiy mavzudagi romanlar va “Bin Sin uslubi”dagi qisqa she‘rlar bilan boyitdilar¹⁰. Bin

⁵ “vernacularization”- adabiy matnning elitistik va murakkab sintaktik qoliplardan tozalanib, keng xalq ommasi tushunadigan leksik-grammatik qatlamga o‘tishi.

⁶ “g‘arblashtirish” -milliy adabiy tilga G‘arb tillari (asosan ingliz va fransuz) sintaksisi, punktuatsiyasi va mantiqiy qurilmalarining tizimli ravishda integratsiya qilinishi.

⁸ 钱理群. 中国现代文学三十年 [M]. 北京: 北京大学出版社, 1998.

⁹ 纪弦 (Ji Xián) va uning atrofidagi **“Zhongyuan” (中原文艺)** yoki zamonaviy she‘riyat oqimi vakillari nazarda tutilgan. Ba‘zan bu guruh xitoycha 现代派 (Xiàndàipài — *Modernistlar*) deb ham yuritiladi.

¹⁰ 古继堂. 台湾小说发展史 [M]. 台北: 文史哲出版社, 1989.

Sinning yozuv uslubi zamonaviy adabiyot tarixida keng e'tirof etilgan. Uning uslubiy xususiyatlari — **yumshoqlik, nafislik, boy mazmun va ritmdir**¹¹.

Bin Sin ijodini akademik o'rganish jarayonidagi muhim qadam 1932-yil iyul oyida 赵景深 Chjao Szinshen tomonidan tayyorlangan va 李希同 Li Situn tahriri ostida chiqqan “冰心论”“**Bin Sin nazariyasi**”¹² kitobining nashr etilishi bo'ldi. Bu Bin Sin haqidagi esselarning ilk to'plami bo'lib, o'z ichiga 梁实秋 Lyan Shisyu, 沈从文 Shen Sunven, 何玉波 Xe Yubo va boshqalarning ham maqto'v, ham tanqidiy fikrlarini qamrab olgan edi. Ushbu kitob bugungi kunda ham Bin Sin ijodini va uning davridagi cheklovlarni tushunish uchun muhim qo'llanma hisoblanadi.

Bin Sinning yozuv uslubi so'zlashuv xitoy tilining **ravonligi va aniqligini**, klassik xitoy tilining **lo'ndaligi va nafisligi** bilan uyg'unlashtiradi. U so'zlashuv leksikasini takomillashtirish va klassik sintaktik tuzilmalarni integratsiya qilish orqali o'ziga xos, nafis va nazokatli uslubni shakllantirdi. Uning uslubiy xususiyatlari — yumshoqlik, nafislik, boy mazmun va ritmdir¹³. Uning nasrida ko'pincha asar boshi va oxirining uyg'unligini ta'minlovchi "aylanma tuzilma"dan, shuningdek, ritm tuyg'usini kuchaytirish uchun parallelizm va antiteza kabi ritorik usullardan foydalaniladi.

Ushbu janrning asosida (爱的哲学- ai de zhe xue) **muhabbat falsafasi** yotadi, hissiyotlar esa uchta asosiy mavzu orqali ifodalanadi: **ona mehri, bolalik beg'uborligi** va **tabiat**. "Yulduzlar" va "Bahor suvi"¹⁴ kabi asarlar qisqa she'rlar shaklida yozilgan; "Yosh kitobxonlarga maktublar" asari maktublar orqali teng huquqli muloqot g'oyasini yetkazadi; "O'tmish voqealari" kabi esselar esa tabiatning shaxslantirilgan (personifikatsiya qilingan) obrazlari yordamida garmonik estetik olamni yaratadi¹⁵

Uning asarlari keng tarqalishi bilan odamlar adibaning nasri va she'riyatini ulug'lab, “**Bin Sin uslubi**”, “**Buloq suvi uslubi**” va “**Yulduzli osmon uslubi**” kabi iboralarni qo'llay boshladilar¹⁶. “Kichkina to'q sariq chiroq” va “Yosh kitobxonlarga maktublar” kabi asarlari darsliklarga kiritilib, xitoy yoshlarining bir necha avlodi

¹¹ 朱栋霖, 朱晓进, 龙泉明. 中国现代文学史 [M]. 北京: 北京大学出版社, 2007.

¹² 赵景深 编, 李希同 校. 冰心论 [M]. 上海: 北新书局, 1932.

¹³ 陈漱渝. 冰心作品赏析 [M]. 北京: 文艺出版社, 1984.

¹⁴ 冰心. 繁星·春水 [M]. 北京: 人民文学出版社, 1998.

¹⁵ 范伯群. 冰心评传 [M]. 南京: 江苏人民出版社, 1984.

¹⁶ 孙中田. 冰心传 [M]. 福州: 福建人民出版社, 1982.

dunyoqarashini boyitdi¹⁷. 1933-yilda xitoylik yozuvchi va adabiyotshunos 茅盾 Mao Dun "Bin Sin haqida mulohazalar"¹⁸ asarini yozdi, unda Bin Sin ijodiga har tomonlama baho berilib, uning hayot yo'li va ijodiy shaxsiyati tizimli va batafsil tahlil qilindi. Keyinchalik, XX asr oxirida Mao Dunning ushbu ishiga sharh sifatida ko'plab maqolalar paydo bo'ldi, jumladan, Syu Yuexuaning "Mao Dunning 'Bin Sin haqida mulohazalar' kitobi haqida"¹⁹ va Yue Kayxuaning "Mao Dun talqinida Bin Sin"²⁰ asarlari shular jumlasidandir. Ushbu maqolalarda "Bin Sin haqida mulohazalar" ijtimoiy-tarixiy tanqidga asoslangani ta'kidlanadi. Mao Dunning ishi, shubhasiz, XX asr boshlaridagi Bin Sin ijodiga oid tadqiqotlarning o'ziga xosligini aks ettiradi; uning inqilobiy realizm tanqidi uzoq vaqt davomida Bin Sin ijodini o'rganishda ustuvorlik qildi va hatto hukmronlik qildi, bunga zamonaviy tadqiqotchilar ham to'liq qo'shiladilar.

Yuqorida tilga olingan sharhlovchi ishlardan tashqari, Xitoyda XX asr oxirida Bin Sin nasri va she'riyatiga oid qator tadqiqotlar paydo bo'ldi, xususan, Li Linning "Yangi davrda Bin Sin tadqiqotlari sharhi"²¹ va Tan Syunning "1980-yillardan keyingi Bin Sin tadqiqotlari"²² asarlarida adibaning "madaniy inqilob"dan keyingi ijodi, uning badiiy tafakkuri xususiyatlari, badiiy palitrasi va ijod psixologiyasi tahlil qilingan.

Xorijda, xususan Yaponiyada, Bin Sin ijodi olimlar e'tiborini hali 1920 va 1990-yillarda tortgan edi. Takino Shujining "Bin Sinning Yaponiyadagi qiyofasi: poklik kuchi" nomli asari eng mashhurlaridan biri bo'lib, unda muallif biografik metoddan foydalangan holda Bin Sin asarlarini tahlil qiladi²³. Bin Sinning Yaponiyaga tashrifi yapon tadqiqotchilarining unga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi. Biroq, adiba Xitoyga qaytgach, bu qiziqish biroz pasaydi. Garchi keyinchalik uning asarlari Kurashiki Takeshiro tomonidan yapon tiliga tarjima qilingan bo'lsa-da²⁴, uning ijodini tizimli o'rganish deyarli 1990-yillarga qadar to'xtab qoldi. Qolaversa, bugungi kunda ham ayrim yapon tadqiqotchilari Bin Sin ijodining qiymatiga shubha bilan qaraydilar. Umuman olganda, xitoylik adibaning nasri Yaponiyada faqat qisman o'rganilgan. 1994-yilda Chjan Tanfen va Szya Linxin "Ingliz tilida so'zlashuvchi

¹⁷钱理群. 冰心论 [M]. 北京: 人民文学出版社, 2002.

¹⁸ 茅盾. 冰心论 [M]. 上海: 光华书局, 1933.

¹⁹ 徐越华. 评茅盾的《冰心论》 [J]. 嘉兴师专学报, 1992 (3).

²⁰ 乐凯旋. 茅盾论评中的冰心 [J]. 冰心学刊, 2007 (1).

²¹ 李林. 新时期冰心研究综述 [J]. 冰心学刊, 1996 (2).

²² 谭旭. 八十年代以来的冰心研究 [J]. 福建师范大学学报 (哲学社会科学版), 1994 (1).

²³ 滝野修二. 日本对冰心的评价: 清纯的力量 [J]. 冰心学刊, 1995 (1).

²⁴ 仓石武四郎 译. 冰心选集 [M]. 东京: 改造社, 1930.

dunyoda Bin Sin tadqiqotlari: tanqidiy sharh"²⁵ nomli asarini nashr etdilar. Unda so‘nggi 30 yil ichida ingliz tilida so‘zlashuvchi dunyoda Bin Sinning hayoti va ijodini o‘rganishdagi asosiy yutuqlar va asosiy nuqtalar umumlashtirilgan²⁶.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotlar adiba ijodining yangi talqinlarini, xususan, uning "muhabbat falsafasi"ni taklif etadi. Ingliz tilidagi mualliflarning ishlari tizimlilik bilan ajralib turadi, bu esa Bin Sinning asl matnlarini yanada sinchkovlik va chuqur o‘rganish imkonini berdi. Umuman olganda, bu tadqiqotlar Britaniya va Amerika adabiyotshunosligidagi "yangi tanqidchilik"(new criticism) maktablari rivojining natijasidir.

Bin Sin nomi Sobiq Ittifoq sinologiya adabiyotlarida ilk bor 1930-yillarda tilga olingan. Taniqli sovet sinologi B.A. Vasilyev "Imperializm davri xitoy adabiyotida xorijiy ta'sir. Sharq adabiyoti muammolari"²⁷ nomli maqolasida Se Binsinni burjuaziya vakili deb atagan va uning ijodiga salbiy baho bergan. Shu bilan birga, muallif Se Binsinning uslubiy mahorati juda yuqori ekanligini va bu borada u boshqa yozuvchilardan ustunligini qayd etgan. Keyinchalik, 1983-yilda N.V. Zaxarova Bin Sinning hayot yo‘li, ijodiy ilhom manbalari va uning zamonaviy xitoy adabiyotiga ta'siri haqida bir qancha maqolalar e'lon qildi²⁸. So‘ngra u adibaning asarlarini ko‘p marotaba tarjima qildi. N.S. Isayevaning "Xitoy ayollar nasri: kanonning qayta ko‘rib chiqilishi" monografiyasida esa "4-may" adabiyoti vakillari tomonidan onalik mavzusining talqin qilinishi kontekstida uning ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilgan, xolos²⁹. Bin Sin ijodiga bag‘ishlangan ishlarning aksariyati tarixiy sharoitlar va muallif hayotining asarlar mavzusi hamda badiiy palitrasiga ta'sirini tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlardan iborat. Tadqiqotchilar e'tiboridan deyarli chetda qolgan narsa — davr voqealari fonida muallifning emotsional holatini ifodalashdagi Bin Sin nasrining badiiy usullari xususiyatlaridir.

Ushbu maqolada biz Bin Sin esseistikasidagi obrazli bayonning estetikasi va hayot tasvirining haqqoniyligini emotsionallik nuqtayi nazaridan tahlil qildik. Shunday qilib, **maqolaning maqsadi** — Bin Sin nasridagi emotsionallikning badiiy konsepsiyasini, shuningdek, hissiyotlarni ifodalash usullarini aniqlash va tavsiflashdir.

²⁵ Zhang Tangfen and Jiang Linxin. "Bing Xin Studies in the English Speaking World: A Critical Survey." *Bing Xin Xue Kan* (Journal of Bing Xin Studies), no. 2, 1994.

²⁶ Голод Р. Б. Творчість Бін Сін в англомовному світі: критичний огляд // Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Серія: Філологія. — 2019. — № 43, том 2. — С. 54–57.

²⁷ Васильев Б. А. Иностранные влияния в китайской литературе эпохи империализма // Проблемы литератур Востока. Л., 1932.

²⁸ Захарова Н. В. Творческий путь Бин Синь // Проблемы литератур Дальнего Востока: Сборник материалов V Международной научной конференции [С]. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2012. — Т. 1.

²⁹ Исаева Н. С. Женская проза Китая: пересмотр канона [М]. Москва: Восточная литература, 2009.

Uning romanlari, she'rlari va kichik nasriy asarlari kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olindi va tanqidchilar tomonidan keskin muhokama qilindi. Uning ijodi yosh kitobxonlar shaxsiyatining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bin Sinning zamondoshi, taniqli yozuvchi, shoir va publitsist 郁达夫 Yu Dafu (1896–1945) adiba ijodini yuqori baholagan. U Bin Sinni ingliz shoiri P. Shelli³⁰ (Percy Shelley) bilan qiyoslaydi. Yu Dafuning subyektiv xohishlari yaqqol ko'rinib turgan ushbu taqrizi, shubhasiz, Bin Sin nasriy olamining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishimizga yordam beradi.

Bin Sin asarlari uning dunyoqarashini — xitoy jamiyatining ruhiy dunyosi nozikliklarini individual nuqtayi nazardan ko'ra bilishini namoyish etadi. Uning matnlarida nafaqat fikrlar aniq ifodalangan va go'zal emotsiyalar nafis aks ettirilgan, balki muallifning o'ziga xos **emotsiosentrik** (hissiyotga yo'naltirilgan) uslubidan dalolat beruvchi ko'chma ma'noli ifodalar ham saqlanib qolgan. Bin Sin — hayotning ayrim fragmentlarini tasvirlashning mohir ustasi. O'zining sinchkov kuzatuvchanligi va chuqur hissiyotga beriluvchanligi tufayli u o'z matnlarida tuyg'ularning ichki tarangligi va so'zning tashqi go'zalligini birlashtira olgan.

Bin Sin nasri mavzular ko'lami, psixologizm chuqurligi va muammolarning dolzarbligi bilan xarakterlanadi. O'z shaxsiy tajribasi tasvirlari orqali u o'tgan asrdagi Xitoyning murakkab ijtimoiy hayotining ayrim jihatlarini aks ettiradi. Nasr yaratish jarayonida adiba ko'pincha peyzaj obrazlari yordamida hissiyotlarni ifodalashga ustuvorlik beradi. Bundan tashqari, yozuvchi hikoyani ko'pincha birinchi shaxs nomidan olib boradi. "**Men**" — bu ko'rganlarim, eshitganlarim, chekkan azoblarim, his qilganlarim va meni hayajonga solgan narsalar haqida hikoya qiluvchi muhabbat qissasini boshlash uchun kalitdir; bu esa kitobxonni sodir bo'layotgan barcha narsalarni his qilishga majbur qiladi.

Bin Sin nasri tuganmas yashash irodasi va estetik ta'sir kuchi bilan to'la. Bizning nazarimizda, buning sababi yozuvchining o'z zamondoshlari hayotini haqqoniy tasvirlashi, fikr va tuyg'ularini samimiy ifodalashi hamda go'zallikka bo'lgan yengib bo'lmas intilishidir. Uning matnlaridagi peyzajlar alohida estetika bilan ajralib turadi, chunki ular muallif emotsiyalarini o'z ichiga oladi. Bu esa, shubhasiz, Bin Sin asarlarini lirika va peyzaj rangtasvirining uyg'un sinteziga aylantiradi. Adibaning individual uslubi tiniq va aniq bo'lib, unda so'zlashuv nutqiga xos yengillik hamda klassik "venyan" adabiyoti nafisligi unsurlari birlashgan.

"Hayot haqida" (1944) essesida Bin Sin shunday yozadi:

³⁰ Persi Bishi Shelli (**Percy Bysshe Shelley**, 1792–1822) — ingliz adabiyotining eng yirik vakillaridan biri, romantizm yo'nalishining yetakchi shoiri. Bin Sin ijodi bilan qiyoslanganda, asosan ularning ikkalasiga xos bo'lgan **panteistik dunyoqarash** (tabiatni ilohiylashtirish) va **gumanizm** (insonparvarlik) nazarda tutiladi.

“大海庄严地伸出臂儿来接引他，他一声不响地流入她的怀里。他消融了，归化了，说不上快乐，也没有悲哀»(*Dengiz sathi tantanavor ravishda unga [bahorgi jilg'aga] quchoq ochdi va u hech qanday tovush chiqarmay, o'zini uning og'ushiga otdi. U erib ketdi, o'zining asl tabiatiga qaytdi; na quvonchni angladi, na qayg'uni his qildi*”).

Ushbu parcha chuqur ma'noli metaforalarni o'z ichiga oladi. Ular orasida — “**na quvonchni angladi, na qayg'uni his qildi**” jumlasini o'lim va yo'qlikning obrazli tavsifidir. Oddiy odamlar nazarida o'lim azobli va fojiali bo'lib ko'rinsa-da, muallif buni falsafiy kontekstga ko'taradi.

Keyinchalik Bin Sin shunday mulohaza yuritadi:

«生命中不是永远快乐，也不是永远痛苦的，快乐和痛苦是相生想成的»

(*"Hayot har doim ham quvonchli emas va har doim ham azobli emas. Baxt va azob bir-birini tug'diradi va to'ldiradi"*).

Mazkur esse quyidagi so'zlar bilan yakunlanadi:

愿你生命中有够多的云彩，来造成一个美丽的黄昏

"Ilohim, hayotingizda go'zal shafaqni yaratish uchun yetarli darajada bulutlar bo'lsin".

Bu yerda "**bulutlar**" hayot davomidagi turli-tuman taassurotlar va kechinmalar boyligi bilan qiyoslanmoqda. "**Go'zal shafaq**" esa inson xotiralarga boy bo'lgan, o'zini baxtli his qilishi kerak bo'lgan keksalik davrini anglatadi.

Bin Sin — o'z asarlarining nafis badiiy konsepsiyasini yaratgan ijodkor. Bu konsepsiya asosan yozuvchining boy tasavvur kuchi bilan shakllangan. 1921-yildagi «笑» "**Kulgi**" (1920) essesinde o'ziga xos emotsional badiiy palitra yaratilgan. Asar boshida muallif "uzoq davom etgan yomg'ir"dan keyingi deraza ortidagi manzarani chizadi:

(苦雨): “鱼深息了，凉云散了，树叶上的残滴映着月光 “... (*"...baliq chuqur nafas olardi, sovuq bulutlar tarqaldi, barglardagi qolgan tomchilar esa oy nurini aks ettirardi"*)

Ushbu mahzun kayfiyatda derazadan qarab turgan va birozdan so'ng xayollarga berilgan qahramon paydo bo'ladi. Uning xayollari **kulgidan** iborat edi — muallif xotiralar va taassurotlarni aynan shu tarzda qurib, essening badiiy konsepsiyasini yaratadi.

Bin Sin nasridagi badiiy konsepsiya — bu ma'lum bir yaxlitlik, syujet, qahramonlar, tabiat, sezgilar va muallifning inson shaxsiyatiga bo'lgan e'tibori

uyg'unligidir. Masalan, (往事(七)", 1922) "**O'tmish (yettinchi epizod)**" essesda Bin Sin xayolan yomg'ir ostidagi lotos gulini tasvirlaydi. U shunday yozadi:

«雨势并不减退，红莲却不摇动了。雨点不住的打着，只能在那勇敢 慈怜的荷叶上面，聚了些流转无力的水珠» ("Yomg'ir tinmadi, lekin qizil gul titramadi...").

"...Yomg'ir tinmadi, lekin qizil gul titramadi. Yomg'ir tomchilari to'xtovsiz urilardi, biroq ular jasur va shafqatli lotos bargi ustida kuchsiz suv tomchilari bo'lib to'planib qolardi". U lotos bargini **onaga**, qizil gulni esa **o'ziga** qiyoslaydi:

“我心中深深的受了感动——母亲呵！你是荷叶，我是红莲。心中的雨点来了，除了你，谁是我在无遮拦天空下的荫蔽？”("Qalbm tub-tubidan hayajonlandim — ey, ona! Sen — lotos bargisan, men — qizil gulman. Qalbinga yomg'ir tomchilari tushganda, Sendan boshqa kim, Sendan o'zga kim meni ochiq osmon ostida pana qila oladi?")

Xitoy madaniyatida lotos ona mehrining ramzlaridan biri bo'lib, u ona va qiz o'rtasidagi munosabatlarga oid ko'plab kechinmalarni uyg'otadi. Butun manzara aniq va lo'nda, muqaddas va tantanavor ko'rinishda namoyon bo'ladi — bu Bin Sin kichik nasrining nafis badiiy konsepsiyasini umumlashtiradi. Bin Sin nasridagi badiiy konsepsiya insonlar, tabiat, buyumlar va tuyg'ularni sub'ektiv va ob'ektiv dunyoning yagona holatiga birlashtiruvchi tasvir bilan yakunlanadi.

Yozuvchi hayotiy vaziyatlarni haqqoniy va samimiy tasvirlashga intiladi. U tasvirlagan buyumlar va voqealar o'ziga xos va unutilmasdir. Ularning barchasi adibaning haqiqiy tuyg'ularini aks ettiradi. Bin Sin asarlari, bizning ishonchimizcha, kitobxonni real hayot manzarasini chizgan holda **muhabbat falsafasi** olamiga g'arq qiladi.

Tush"(«梦», 1921)" essesda Bin Sin o'z bolaligini, anirog'i otasi bilan sohilda o'tkazgan vaqtlarini eslaydi. U biroz afsus bilan xotiralarga beriladi:

“除了几点无聊的英雄泪，还有什么，她安于自己的境地了~生命如果是圈儿般的循环，或者便从'将来'又走向'过去'的道上，但这也是无聊呵”。("Bir necha ma'nosiz qahramonlik ko'z yoshlaridan bo'lak unda nima bor? U o'z vaziyatiga ko'nikkan. Agar hayot doira kabi aylansa yoki "kelajak"dan yana "o'tmish" sari yo'l olsa, bu ham zerikarli bo'lardi").

Bin Sin ushbu hayot keltiradigan afsus va g'am haqida ochiq yozadi. Bunda u ushbu qahramonning ilgari o'zi yaratgan nafis obrazlardan keskin farq qilishiga

e'tibor bermaydi. Aynan shu so'zlar kitobxonlarga yozuvchining tirik, haqiqiy tuyg'ularini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ladi:

1. Emotsiosentrizm va intimizatsiya strategiyasi:

Bin Sin nasriy diskursining tayanch konstruksiyasi sifatida emotsiosentrizm (hissiyotning markaziy o'rni) belgilandi. Adiba sub'ektiv kechinmalarni bayon qilishda birinchi shaxs ("Men") narratsiyasidan foydalanib, matnning intimizatsiya (kitobxon bilan yaqin muloqot o'rnatish) darajasini yuksaltiradi. Bu uslub o'quvchida muallif bilan hamnafaslik tuyg'usini uyg'otib, asar syujetini shaxsiy tajriba sifatida qabul qilishga xizmat qiladi.

2. Lirik-estetik ideal va peyzaj funktsionalligi:

Adiba ijodida go'zallikka intilish shunchaki estetik maqsad emas, balki insonning ruhiy kamolotini ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Bin Sin esseistikasidagi peyzaj obrazlari passiv fon vazifasidan chiqib, muallifning ichki dunyosini aks ettiruvchi psixologik parallelizm vositasiga aylanadi. Tabiat unsurlari (dengiz, oy nuri, yomg'ir) adiba nasrida insoniy tuyg'ularning vizual proyeksiyasi bo'lib xizmat qiladi.

3. Emotsionallikning sintetik-konseptual modeli:

Tadqiqotda Bin Sinning "sintetik emotsionallik" modeli asoslab berildi. Ushbu modelga ko'ra, muallif o'z individual hissiyotlarini aniq ob'ektlarga (masalan, ona mehrini lotos bargiga) ko'chirish (translyatsiya qilish) orqali ob'ektiv dunyo bilan sub'ektiv kechinmaning garmonik birligini yaratadi. Bu esa asar badiiy konsepsiyasining yaxlitligini va obrazlarning ko'p qatlamli metaforik quvvatini ta'minlaydi.

4. Emotsional realizm va avtobiografizm:

Bin Sin nasrida emotsional haqqoniylik realizm tamoyillari bilan uzviy bog'liq. Garchi asarlar kuchli lirik bo'yoqdorlikka ega bo'lsa-da, ularning zamirida muallifning real hayotiy tajribasi, avtobiografik xotiralari va davrning ijtimoiy-madaniy manzarasi yotadi. Bin Sinning adabiy mahorati shundaki, u shaxsiy (subyektiv) kechinmani umuminsoniy (universal) qadriyat darajasiga ko'tara oladi.

5. Lingvistik transformatsiya va novatorlik:

"Bin Sin uslubi" (冰心体) klassik xitoy tili (*venyan*)ning nazokati va zamonaviy so'zlashuv nutqi (*bayxua*)ning ravonligini o'zida mujassam etgan o'ziga xos lisoniy fenomendir. Bu uslub zamonaviy xitoy adabiy tilining me'yorlashuvida, ritorik figuralar (parallelizm, antiteza) va ritmik qurilishning nasrdagi rolini belgilashda muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Bin Sin nafaqat "4-may adabiyoti"ning yorqin vakili, balki zamonaviy xitoy nasrida inson ruhiyatini tasvirlashning yangi estetik mezonlarini yaratgan ijodkordir. Uning "muhabbat falsafasi" va emotsional-badiiy usullari bugungi kunda ham jahon adabiyotshunosligi kontekstida o'zining gnoseologik va badiiy qimmatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 王炳根. 冰心论集. 福建：海峡文艺出版社，2009年，共897页；
2. 徐越化. 论矛盾的“冰心论”. 湖州：湖州师专学报，1992年，共111页；
3. 岳凯华. 矛盾论冰心. 邵阳学院学报. 邵阳，2007年第三期，共171页；
4. 李玲. 评新时期的冰心研究. 中国现代文学研究丛刊. 北京，1996年第四期，共292页；
5. 唐群. 八十年代以来冰心研究述评. 赣南师范学院学报. 赣南，2002年第五期，共152页；